8.	Share of regional countries in foreign trade turnover	12%	13%	14%	14%	17%

It should be noted that today the countries of Central Asia face an important strategic task. At the same time, ensuring both economic security and national security of the region remains a global issue. Regional security is understood as the degree of protection of the individual, society, state, and economic interests of the region from internal and external threats in the region (territory), ensuring the stability of the socio-economic development of the region.

Factors and threats affecting the economic security of the Central Asian region are different in their origin and manifestation, and they can be listed as follows:

1. Limited water resources and low efficiency of their use;
2. Difficulties in the effective use of transport and logistics capabilities;
3. Environmental threats;
4. Possible conflicts of interest of large centers in the region;
5. The possibility of conflicts arising in different directions in the countries of the region, as well as between them;
6. Economic losses as a result of the application of secondary sanctions;
7. Lack of a unified mechanism for monitoring new types of financial services;
8. The high role and importance of raw materials in the economy of the countries of the Central Asian region, etc.

Analyzes show that the share of raw materials in the exports of Central Asian countries remains significant. In addition, transport costs in Central Asian countries are slightly higher than in other countries. For example, delivery of one container from Central Asian countries to Shanghai, China, costs 5 times more than from Turkey and Poland. Landlocked countries spend on average 18% of their export earnings on transport costs. For comparison, in developed countries this figure is 9 percent[2].



Today, environmental factors and challenges related to water resources are increasingly influencing the economic security of the region. In particular, an increase in problems such as landslides, desertification, droughts and floods in the region could cause food shortages and humanitarian problems. According to data, the damage from envi-

ronmental problems in Central Asia over the past 30 years amounts to 10 billion US dollars. Damage from natural disasters today accounts for about 2% of the region's gross domestic product[3].

Figure No. 1. Indicators of the volume of water consumption in the Central Asian region during the calendar year^[4]

Due to population growth in the Central Asian region, an increase in cultivated areas in Afghanistan, the construction of various hydraulic structures and climate change, problems related to water resources remain relevant. The uneven distribution of water resources and low efficiency of their use are considered as specific aspects of solving the problem. According to the European Environment Agency, the largest volume of water consumption per capita in the region is in Turkmenistan, which amounts to 5952 m³. High efficiency indicators for use in the region in Kazakhstan are 1319 m³ per consumer, the figure in Uzbekistan is 2158 m³. Considering that the average water consumption per person in the European Union is 484 m³ per year, we can conclude that there are certain shortcomings in this direction for the countries of the region (Figure No. 1).

Consumption

The fact that the country's economic development is directly related to the processes taking place in the region requires further development of cooperation in economic, cultural and other areas between the countries of Central Asia. In ensuring the economic security of the region, an important factor is monitoring existing and potential threats. Of particular importance in this direction is the timely identification of new types of threats in a rapidly changing external environment. The development of measures to prevent threats to the economic security of the region should be based on mutual cooperation between the countries of the region. In addition, it is necessary to pay more attention to issues of economic security of the region, intensify scientific research conducted in this direction, and develop new approaches to monitoring existing and potential threats.

LITERATURE

[1]. Compiled by the authors on the basis of open data Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan

[2].Economic security. Tutorial: joint authorship. – T.: SCC CI, 2021, - 156p.

[3].news/2021/08/05/pragmatik-tashqi-siyosat-ekspert-bilan-markaziy-osiyo-muammolari-va-ularni-hal-qilishda-ozbekistonning-orni.

[4].Compiled based on data from the European Environment Agency.

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti Media va kommunikatsiya fakulteti**3-bosqichtalabasi Eshpo'latova Zarnigor**

Annotatsiya: ushbu maqolada korrupsiyaning jamiyatni inqirozga, insoniyatni halokatga olib boruvchi yo'l ekanligi, korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribalari va qo'llagan usullari, mazkur illatga qarshi Respublikamizdagi olib borilayotgan islohotlar va qo'shimcha chora-tadbirlar haqida so'z boradi.

Tayanch tushunchalar: korrupsiya, jamiyat, islohot, shaxsiy manfaat, inqiroz, sanksiya, protsedura, impichment, ilmsizlik, jinoyat.

Korrupsiya – jamiyatni yemiruvchi, mamlakatni halokatga yuz tutishiga sabab bo'luvchi bosh omillardan biri hisoblanadi. Korrupsiya tufayli nafaqat jamiyat a'zolari, balki iqtisodiyot-xalqaro savdo ham ziyon ko'radi. Aynan mana shu holatlar so'nggi yillarda xalqaro korrupsiya muammosiga e'tibor qaratishga sabab bo'ldi. Dastavval, "Korrupsiya nima?", "U qanday qilib jamiyatga ta'sir ko'rsatadi" degan savollarga javob beraylik.

"Korrupsiya" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, pora evaziga sotib olish, buzilish, sotilish degan ma'nolarni bildiradi. Korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilikka va axloq qonun-qoidalariga zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir. Korrupsiyaning xarakterli jihati shundaki, bunda amaldor, uning manfaatlari va jamiyat manfaatlari o'zaro bir-biriga zid qo'yiladi. Aksariyat hollarda mazkur illat, ya'ni korrupsiya, amaldorlar tovlamachiligida namoyon bo'ladi. Bunday holatlarga esa davlatga qarshi jinoyat deya qaraladi.

Korrupsiya tarixiga nazar soladigan bo'lsak, uning ildizlari uzoq ming yillarga borib taqalishi insonni chuqur o'yg'a toldiradi. Dastlab, urug'-qabilachilik vujudga kelgan davrda ham korrupsiya mavjud bo'lgan. Ya'ni biron mansabni egallash uchun insonlar qabila boshliqlari-yu oqsoqollarga turli qimmatbaho sovg'a-salomlar tortiq qilishgan. Qimmatli sovg'a hadya etganlar boshqalardan ajralib turgan va ularning talablari so'zsiz qondirilgan. Ammo o'sha davrlarda ham bu illatga qarshi kurashgan odil hukmdorlar bo'lganligi kishini quvontiradi. Korrupsiya-poraxo'rlikka qarshi kurashgan ilk hukmdor sifatida eramizdan qariyb ikki yarim ming yil ilgari yashagan Shumer podshohi Uruinimgina tilga olinadi. Qadim zamonlardayoq korrupsiyaga qarshi qattiq jazolar belgilangan bo'lsa-da, bu illatni tag-tugi bilan yo'q qilishning, jinoyatlarni bartaraf etishning imkoni bo'lmagan. Belgilangan jazolar butunlay besamar ketdi, demaymiz. Bu jazo turlarining belgilanishi katta-katta jinoyatlar oldini oldi, ammo doim ham ko'ngildagidek natijaga erishilmadi. Kamomadlarga yo'l qo'yish, pora olish, pora evaziga „ishini bitirib berish" kabilar muntazam ravishda davom etavergan. Bu muammo bilan deyarli barcha davrlarda, barcha tuzumlar, xalqlar to'qnash kelgan,

hatto Misr fir'avnlari ham. Korrupsiyaning yaqin orada paydo bo'lmagan, azaliy muammo ekanligini shundan ham bilib olish mumkin.

Inson borki, nafs bor, inson borki, xatolarga yo'l qo'yadi. Aynan mana shu nafs, manfaat tufayli nohaqdan nohaq, adolatsiz hukmlar insonlarning aziyat chekishiga sababchi bo'ladi. Korrupsiya jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolar natijasida turlicha yo'nalishda sodir etiladi. Davlat mansabidan, lavozimi vakolatlaridan foydalanib, turli sovg'a-yu hadyalar olishga ruju' qo'yish, asosan, islohotlar paytida avj oladi. Nega? Chunki, davlat tomonidan turli sohalarni rivojlantirish, ularni jahon standartlariga javob beradigan darajada tashkil etish kabilarga har yili budjetdan mablag'lar tegishli idora-yu tashkilotlarga yetkazib beriladi. Mana shunday vaziyatda ba'zi o'z vazifasi, burchi va majburiyatlarini to'la anglab yetmagan, zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarish mas'uliyatini to'la his etmagan "adolatli" mansabdorlar o'z manfaatlari uchun "jinoyat"ga qo'l urishadi.

Statistikaning guvohlik berishicha, poraxo'rlik ayni paytga kelib, nihoyatda tahdidli va keng ko'lam kasb etmoqda. U ayniqsa, iqtisodiy jinoyatlar orasida yetakchi o'rin tutadi. Uning insonlarga va umuman, jamiyatga yetkazadigan zarari kattaligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Korrupsiya, avvalo, davlat mablag'lari va resurslarini samarasiz sarflanishiga sabab bo'ladi. Ya'ni, mansabdorlar davlat mulkini noqonuniy o'zlashtiradilar. Korrupsiyaning avj olishi mamlakatda tadbirkorlarning sinishiga, malakali kadrlarning chet ellarga chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy yoki ijtimoiy muhitda, balki ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bilimli, zehni yoshlarning oliy o'quv yurtlariga kira olmaganliklari, malakali kadrlarning davlat tashkilotlariga bo'sh ish o'rni bo'la turib, ishga joylasha olmaganliklari bunga yorqin misol. Bilimsiz, qo'lga kitob olmaganlar oliy o'quv yurtlarida "o'qib", aslida joyi oliy o'quv yurtida bo'lgan yoshlar esa chet ellarda qora terga botib, qurilish ishlarida ishlab yurgan damlar, aynan korrupsiya o'ta avj olgan damlar edi. Xayriyatki, bunday nohaqliklar, o'ta palak yozgan paytlar ortda qoldi. Ammo-lekin, butunlay emas. Korrupsiya hamma sohalarda avj olganiga istalgancha misol keltirishimiz mumkin. Fuqarolarning o'z muammolarini hal etish uchun mansabdorga pora berishi, ko'p hollarda masalaning hal etilishini tezlashtiribgina qolmay, balki muammoni yuz foiz arizachining foydasiga hal etadi. Korrupsiya oqibatida ishlab chiqarish uchun ajratilayotgan investitsiyalar kamayib, iqtisodiy o'sish to'xtaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda korrupsiyaning salbiy ta'siri sababli berilayotgan xalqaro yordamlardan maqsadsiz foydalanish, ijtimoiy tengsizlikning o'sishi kuzatiladi. Bu esa jamiyatda tabaqalanishni yuzaga keltirishi turgan gap. Misol qilib aytadigan bo'lsak, amaldorlar o'z farzandlarini bilimi yo'q bo'lsa-da, oliy o'quv yurtiga kiritsa-yu, kam ta'minlangan oila farzandlari bilimli bo'la turib, "pora berolmagani bois" o'qishga kira olmasa. Bunday hollar boshqa davlat tashkilotlarida ham kuzatiladi. Masalan, malakali, tajribali yosh kadr "tanishlari" bo'lmagani uchun ishga qabul qilinmasa-yu, ammo "tanish"lari bor tajribasiz "kadr" davlat lavozimlarida ishlasa. Bunday nohaqliklar salmog'i hozir ancha kamaygan.

Inson o'z hayoti davomida ertami-kech nohaqlikka, adolatsizlikka duch keladi. Puxta bilimga ega o'quvchining institutga kira olmasligi, sudyaning pora evaziga gunohkorni oqlab, begunohni qoralashi kabilar ko'p uchrab turadigan hodisalar. Mana shunday

korrupsion holatlarga duch kelganda befarqlik qilmasdan, davlat tashkilotlariga xabar berish-davlat va jamiyat hayotiga e'tiborli bo'lgan fuqaroning burchidir.

Korrupsiya – jamiyatni yemiruvchi illatga qarshi kurash, ayni paytda butun dunyoda tez sur'atlarda olib borilayotgan jarayonlardan biri. Korrupsiya tushunchasi va uning shakllari xalqaro darajada rasman Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1995-yilgi rezolyutsiyasida aks etgan. Rezolyutsiya qonun-qoidalariga muvofiq, davlat ichki qonunchiligi korrupsiya mezonlarini va uni bartaraf etish choralarini belgilaydi.

Keyingi paytlarda bir qator xorijiy davlatlarda, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lgan ayrim davlatlar rahbariyati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash olib borish maqsadida bir qator chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. Bunday kurashning boshlanishi tabiiy edi. Chunki, davlat tashkilotlariga aynan korrupsion holatlar ustidan kelib tushayotgan murojaatlar soni kun sayin ortayotgan edi. Rossiya Federatsiyasining korrupsiyadan ko'p ziyon ko'rganiga bir misol keltiramiz. Davlatda faoliyat ko'rsatayotgan "Demokratiya uchun informatika" jamg'armasi korrupsiyaning mamlakatdagi ahvoli to'g'risida o'n yil davomidagi islohotlar davomida poraxo'rlik darajasi pasaymaganligini, Rossiya korxonalari va fuqarolari har yili kamida 37 milliard dollarni pora uchun sarflagani e'lon qilingan edi.

Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan keying yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Gruziya, Ozarbayjon, Moldoviya va Ukraina davlatlarida korrupsiya darajasi yuqori ekanligi ko'rsatiladi. Hozirgi paytda bu davlatlar tomonidan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar ko'rilayotganini ularning korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilayotganida va qizg'in islohotlar jarayonida ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, Ukrainada "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun mavjud bo'lib, davlat boshlig'i mazkur qonun normalarini hayotga joriy etilishiga jiddiy ahamiyat beradi. Ukraina Prezidentining 1997-yil 10-apreldagi 319-sonli farmoni bilan "Korrupsiyaga qarshi kurash" milliy dasturi tasdiqlangan. Qonunning 9-moddasida mansabdor shaxslarning daromadlari, ko'chmas mulk va boshqa qimmatbaho buyumlari, shuningdek, bankdagi omonatlari to'g'risida rasmiy nashrlarda ma'lumotlar berib borilishi belgilangan. Xususan, 1787-yilda qabul qilingan Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasida pora olish eng og'ir jinoyat deb topilib, bunday hollarda hatto mamlakat prezidentiga impichment e'lon qilinishi mumkinligi qayd etilgan.

Hozirgi kunda korrupsiyadan xoli mamlakatlar orasida yetakchi o'rinda turuvchi Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash o'zining qat'iyligi va davomiyligi bilan ajralib turadi. Singapur mustaqillikka erishgan 1965-yilda korrupsiya avjiga chiqqan edi. Uni kamaytirish maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rildi. Jumladan, sudyalarning maoshi ko'tarildi, nazorat organlariga qo'shimcha vakolatlar yuklatildi, davlatda sanksiyalar joriy etildi, amaldorlar vakolatlari cheklab qo'yilib, byurokratik protseduralarni soddalashtirish kabilar amalga tatbiq qilindi.

Asosiysi, qonunchilikda bu illatga qarshi jazo tayinlandi. Bu ham korrupsiyaga qarshi kurashda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Saudiya Arabistonida korrupsiyaga qarshi kompaniya tuzildi. "Sky News Arabia" telekanali xabarlariga qaraganda, mazkur

illatga qarshi kurash bo'yicha Oliy qo'mita tuzilgan. Bu o'tkazilgan tadbirlar natijasida hukmdor sulolaning 11 nafar shahzodasi va o'nlab vazirlar qilmishlari uchun hibsga olindi. Korrupsiyaga qarshi kurash hamma mamlakatlarda turlicha usullar orqali olib borilmoqda.

Yurtimizda ham bu illatga qarshi kurash tez sur'atlarda olib borilmoqda. O'tgan yillar mobaynida poraxo'rlik, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish kabi holatlar bo'yicha qonunchilikda turli jazolar belgilangan. Shunga qaramasdan, davlatimizda biron qonun joriy etilmagan edi.

2016-yil 24-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi tomonidan

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun qabul qilinib, u 13-dekabrda Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullandi. Ushbu qonun Respublikamizdagi korrupsiya qarshi kurash jarayonida dasturilamal vosita bo'lib xizmat qildi. Qonun 6 bob, 34 moddadan iborat bo'lib, uning 3-moddasida korrupsiyaga ta'rif beriladi: “Korrupsiya-shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”. Qonunning 4-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari to'liq bayon etilgan. Xususan, unda fuqarolarning huquq va erkinliklari haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Korrupsiya bu jahondagi global muammolardan biri hisoblanadi. “Financial Times” gazetasi 1995-yil

31-dekabr sonida 1995-yilni “Korrupsiya yili” deb e'lon qildi. Korrupsiya haqidagi bilimlarni targ'ib qilish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti 9-dekabrni “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” deb belgiladi.

Korrupsiyaviy jinoyatchilikka qarshi sifatli va samarali kurashish uchun davlatning korrupsiyaviy jinoyatchilikning oldini olish borasidagi tizimlashgan chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga mazkur chora-tadbirlarda korrupsiyaga qarshi fuqarolik jamiyati institutlari bilan keng hamkorlik qilinishi nazarda tutilishi shart va zarur.

Korrupsiyaga-jamiyat inqirozga olib boradigan illatga-qarshi kurash har bir mamlakat aholisining fuqarolik burchi hisoblanadi. Birovni haqini yeyish, poraxo'rlik nafaqat dunyoviy ilmlarda, balki diniy bilimlarda ham yomonillat sifatida keltiriladi. Jumladan, islom dinimizning muqaddas kitobi Qur'oni Karimda shunday deyiladi: “Mol va boyliklaringizni o'rtalaringizda yemangiz! Shuningdek, bila turib odamlarning haqlaridan bir qismini gunoh yo'li bilan yeyish (o'zlashtirish) maqsadida uni hokimlarga havola etmangiz!” (Baqarasurasi, 188-oyat”). Xristian dinining muqaddas kitobi “Injil” kitobida ham poraxo'rlik haqida fikrlar bildirilgan. Dunyoviy ilmlarga qaraydigan bo'lsak, huquqshunoslik, tarix, fiqh, dinshunoslik kabi fan sohalarida ham korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, bartaraf qilish yechimlari haqida anchagina bilimlar mavjud.

Bu illat tufayli rivojlanayotgan mamlakatlar ichdan yemiriladi. Chunki, davlat islohotlar o'tkazib qancha yuksalsa, o'zini yemirayotgan zararli illatlar oqibatida shuncha “cho'kadi”. Hozirgi kunda eng ko'p uchrayotgan korrupsion holatlardan biriga

e'tiborimizni qaratsak. Talabaniy fandan yaxshi baho olishi uchun o'qituvchiga pora berishi. Bu holga o'zimiz ham guvoh bo'lganimizni yashirmaymiz. Yaxshi o'qiydigan talaba yakuniy nazoratlardan past ball yoki namunalari bahoni emas, qoniqarli baho olganini-yu, yil mobaynida o'qimagan "bilimli" talabani yakuniy nazoratlardan eng yuqori ball to'plaganiga har birimiz guvohmiz. Oliy ma'lumotli, madaniyat-u ma'naviyatdan xabardor bo'lgan o'qituvchining bunday yo'l tutishiga asosiy sabab- ilmsizlik, o'qiganni uqmaslik, nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanini bilmaslik, qo'pol qilib aytganda "nafsining quli" ekanligi sabab emasmi? Agar har bir inson o'qiganini uqsa, ko'nglida sal bo'lsa-da o'zi tug'ilib o'sgan Vatanga muhabbat hissu uyg'onib, shu millatga naf keltirish maslagi bilan yashasa edi, bunday ko'ngilsiz hollar kuzatilmadi. Lekin "guruch kurmaksiz bo'lmaydi".

Korrupsiyaning yuzaga kelishiga va avj olishiga asosiy sabablardan birini aynan ilmsizlik, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki hozirgi XXI asr axborot-texnologiyalar asrida kitob o'rniga qo'lga olinayotgan texnikalardan ijobiy maqsadlarda kamdankam hollarda foydalanilyapti. Yoshlarimiz, umuman olganda bugungi kun odamlari aynan kitobni kam qo'lga olganliklari (hatto qo'lga olmayotganlari) sababli kelajak bunyodkorlari ilmsiz va ma'naviy qashshoq holda tarbiyalanishyapti. O'z huquqlarini bilmagan, nima mumkin-u, nima mumkin emasligini farqlay olmaydigan, to'g'ri bilan noto'g'ri ajratolmaydigan fuqarodan esa har qanday jinoyatni kutish mumkin, shuningdek, korrupsiyani ham. Halol bilan haromni farqiga boradigan inson, pora bergan ham, pora olgan ham birdek gunohkor va javobgar ekanligini anglagan holda har qadamini o'ylab bossa, har nafasida shu muqaddas yurtda yashayotganiga shukrona keltirib, Vatani uchun foyda keltirishni niyat qilib yashasa, o'ylaymizki, jamiyatimiz va davlatimiz yaxshi tomonga tubdan o'zgaradi.

Qanday omillar korrupsiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi?

Qanday omillar korrupsiyaning kurtak otib, «gullab-yashnashi»ga sharoit yaratmoqda. E'tibor bering: «Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida, o'z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir». Bu yerda kalit so'z «davlat organlari xodimlari» sanaladi. Meni fikrimcha: ushbu jumlaning o'zi korrupsiya darajasi yuqori ekanida davlat xizmatchilarining roli muhim ekanligini ko'rsatadi. Davlat organlarida xizmat qilayotganlarni bunday qabih ishga qo'l urishga nima undamoqda? Javob yana izohning o'zida yastanib turibdi: «moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida!» Tabiiyki, korrupsiya ortida oson pul topish ilinji turibdi, lekin buning sababi asosan davlat xizmatchilarining oylik maoshi pastligi sabab bo'lmoqda. Aniqroq qilib aytganda, kuchli bilim va tajribaga ega xodim hech qachon kichik maosh taklif etilgan ish lavozimida mehnat qilmaydi. Uning oldida tanlash uchun ikkita yo'l turibdi: ish joyini o'zgartirib, ko'p oylik maosh va'da qilib turgan xususiy sektorga o'tib ketish yoki kichik maoshga «qanoat» qilib, korrupsiyaga qo'l urish. Bunday vaziyatda, asosan davlat organlarida kadrlar yetishmovchiligi kuzatilib, tajribali va bilimli mutaxassislarni yo'qotishadi.

Ta'lim- tarbiyada korrupsiyaning o'zni Qonunda belgilanganidek, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiyani

kuchaytirish masalasi ham dolzarb mavzu hisoblanadi. To‘g‘ri ishlab, to‘g‘ri yashashni bolalilikdan, yoshlikdan o‘rgangan odam mard va halol bo‘ladi. Adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasbu amalga, ishonchga xiyonat qilib bo‘lmasligini o‘qib-uqqan, poraxo‘rlik va korrupsiyaga, suiiste‘molchilikka qarshi o‘zida immunitet hosil qilgan yoshlar kelajakda jur‘atli, vijdonli inson bo‘lib yetishadi. Qonunga, tartib-qoidalarga hurmat saqlab, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qiladi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo‘lmasligini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunadi. Qisqacha qilib aytganda: ushbu illatni ildizi bilan yo‘q qilish uchun birinchi navbatda aholining huquqiy savodxonligini ya‘ni huquqiy ong, huquqiy bilim, huquqiy madaniyatini oshirish, nafsni tiya bilishga o‘rgatish, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda, davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta‘minlashda, fuqarolarga tezkor va xolis axborot yetkazishda ommaviy axborot vositalariga erkinlik berish, demokratik islohotlar jarayonida ularning nufuzi va mavqeini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish masalalari qonunda alohida belgilab qo‘yilgan.

Ommaviy axborot vositalarining erkin va dadil faoliyatisiz jamiyat hayotini demokratlashtirish, odamlarni mustaqil fikrlab yashashga undash, hozirgi kunda suv va havodek zarur bo‘lgan jamoatchilik nazoratini izchil yo‘lga qo‘yish mumkin emas. Butun dunyoda davlatning demokratiyani hurmat qilishiga, xalqning salohiyati va madaniyatiga matbuot erkinligi, odilligiga qarab ham baho beriladi. Albatta, bugun bu haqiqatni ko‘pchiligimiz yaxshi tushunamiz va tan olamiz.

Korrupsiyaga qarshi kurashish eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash lozim. Bu borada ayollarimizning roli katta, deb hisoblayman. Agar o‘g‘rlik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag-ildizini ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini aytolsa, erlar halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz. Korrupsiya — tamagirlikning yuqori nuqtasi. Unga qarshi kurashish uchun amaldorlardan siyosiy iroda talab qilinadi. Ushbu vaziyatdan chiqish usuli shuki, avvalo, fuqarolarning shaxsiy hayotiga va iqtisodiy faoliyatiga davlatning minimal aralashuvi, monopoliyaga barham berilishi lozim.

Menimcha, bu illatga qarshi kurashishni quyidagi muammolarning yechimidan boshlash kerak:

-agentlik tomonidan korrupsiya tarkibiy qismiga kiradigan qonun hujjatlari qayta ko‘rib chiqilishi; davlat muassasalari ustidan jamoatchilik nazorati (ochiqlik indeksi)

o‘rnatilishi;

-hokimlar va vazirlar parlament hamda mahalliy Kengashlar tomonidan tasdiqlanishi;

-barcha davlat xizmatlari “Yagona oyna” markazlariga o‘tkazilishi, sud tizimi

mustaqilligi mustahkamlanishi;

-davlat xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi, mansabdor shaxslarning ish haqini biznesdagiga o'xshash ish haqidan 2-3 baravar ko'p bo'lishiga erishilishi kerak.

Buning uchun mustaqil komissiya va markazlarni tuzish, haqiqiy ahvolni jiddiy

o'rganish, barcha tadqiqotlar hamda axborotlarni muntazam yig'ib boradigan yagona markaz tezda ish boshlashi talab etiladi. Chunki qiladigan ish va vazifa o'n yillarga yetadi.

Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishidan tashqari, o'zining kimligini, e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga non-tuz berib katta qilgan, ilmu hunar, obro' va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo'yadi. Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o'ylaydi. Ular hech kimga, imon-e'tiqodga ishonmaydi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo'lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yoru birodarlari, mahallako'yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushunish, mustaqil idrok etish, eng muhimi, unga qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimizdir...

Tarix zarvarog'iga nazar tashlaydigan bo'lsak, korrupsiya illatining ildizlari qadimgi zamonlarga borib taqaladi. O'sha davrda muayyan bir lavozimni egallash uchun qabila oqsoqoli yoki harbiy boshliqlarga haq to'lash tabiiy hol hisoblangan. Keyinchalik davlat rivojlanib borgan sari korrupsiyaning turli xil ko'rinishlari paydo bo'la boshladi va hozirgi kunda jahon miqyosidagi global muammolardan birga aylandi. Ko'pchiligimiz korrupsiya deganda, faqat pul bilan ishni bitirish yoki munosabatlarning shaxsiy manfaatlar evaziga qurilganini tushunamiz. Bu, albatta, noto'g'ri fikr emas. Lekin jamiyatimizda ko'zga ilg'anmas, mayda korrupsiya holatlari ham kuzatiladi. Masalan, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik qilib o'z yaqinlarini ishga joylab qo'yish, jonini, hayotini saqlab qolgan shifokorlarga "sovg'a" lar berish, a'lo baholar olaman deb o'qituvchilarga "mulozamat" ko'rsatish ham aslida korrupsiyadir. Chunki davlat hisobidan maosh oladigan shaxsning boshqa bir kishidan biror narsa ta'ma qilishi qonunga zid holatdir.

Korrupsiyani yo'q qilish uchun qonunlarni qayta ko'zdan kechirish kerak. Poraxo'rlik uchun jazoni yanada kuchaytirish kerak. Shunday jazo bo'lsinki, poraxo'r shu jazoga tortilishidan qo'rqib, korrupsiya jinoyatini sodir qila olmasin. Maoshlarni oshirish kerak. Chunki oilaning asosiy daromad manbayi bo'lgan insonning maoshi oilasi uchun yetmasa, u albatta, boshqa yo'llar bilan pul topishga harakat qiladi. Bunday insonni kichkina bir mansabga tayinlab, vakolat bersangiz ham, u shu vakolatidan o'zining shaxsiy manfaati yo'lida foydalandi. Qadimgi yunon faylasufi bo'lgan Aristotelning quyidagi gaplari fikrimizning yorqin tasdig'idir: "Hokimiyatga pul bilan erishgan odam undan daromad olishga intiladi".

Bugungi kunda jamiyatimizda ustuvor soha – ta’lim tizimida yoshlarimiz ongida korrupsiyaga qarshi “immunitet” hosil qilish dolzarb masala bo’lib bormoqda. Ularning ongida “poraxo’rlik illatini yo’qotib bo’lmaydi” degan noto’g’ri fikr shakllanib qolgani juda achinarli holat, mening nazarimda. Toki biz yoshlarimiz ongiga oilada, bog’chada, maktabda, vaholanki, oliy ta’lim muassasalarida ham korrupsiya jirkanch illat ekanini, nafaqat jirkanch illat, balki jamiyat va davlat tanazzuli ekanligini singdirishimiz, yoshlarimizda mazkur jinoyatga qarshi ma’naviy-ma’rifiy, targ’ibot-tashviqot ishlarini olib bormas ekanimiz, maqsadimizga erishishimiz juda qiyin kechadi. Zero, Davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek: “Korrupsiya bilan maqsadimizga erisha olmaymiz”.

Biz bilamizki, hozirgi kunda respublikamizdagi barcha OTMlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha komplaens nazorat bo’limi tashkil qilingan. Bu tashkilotning vazifasi oliy ta’limda sodir bo’layotgan korrupsiya holatlarini aniqlab, ularga chora ko’rish va korrupsiya holatlarining oldini olishdir. Shu bo’lim tashkil qilinganidan keyin, menimcha, OTMlarda korrupsiya holatlari ancha kamaydi. Bundan tashqari O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida korrupsiyaga oid har qanday holatlarning oldini olish va bartaraf etish bo’yicha murojaatlarni qabul qiladigan telegram guruhi yaratilgan. Qilinayotgan har qanday ishlarning zamirida, albatta, korrupsiya deb atalmish baloni yo’q qilish turibdi.

Hayotda albatta, har birimiz ertami-kechmi nohaqlikka, adolatsizlikka to’qnash kelishimiz ehtimoldan xoli emas. Aytaylik, puxta bilimga ega o’quvchining institutga kirolmasligi yoki sudyaning pora evaziga gunohkorni oqlab, begunohni qoralashi kabi nohaqliklaru bedodliklar hayotda ozmi-ko’pmi uchrab turadigan hodisalardir. Ta’limdagi korrupsiya juda og’ir jinoyat. OTM talabasi kelajakda yetuk kadrqa aylanadi. Hozir bizning kelajagimiz yuksalishida ustozlarimizning xizmati buyuk bo’lganidek, kelgusida shogirdlarimizning ham yetuk mutaxassis bo’lishi bizning qo’limizda bo’lib qoladi. Biz bugun jamiyatdagi yoshlarimizni korrupsiyaga, poraxorlik bilan bir narsaga oson erishishni o’rgatsak, ulardan jamiyatda qanday kadr chiqadi? Biz bugun poraxorlik bilan osongina ishlarimizni hal qilsak, kelajak avlod kim bo’lib yetishadi? Bu kadrlar ertaga farzandlarimizni bilim bilan tarbiyalash o’rniga, savodsizlik urug’ini sochadi. Men Vatanimizni baquvvat bo’lib o’sgan chinor daraxtiga, korrupsiyani esa shu daraxtning tomiriga o’xshataman. Daraxtni tomiriga bolta ursangiz, u quriydi, so’lib qoladi. Davlat ham shunday, uni yemiradigan, qulatadigan narsa esa korrupsiyadir. Korrupsiya bor jamiyatda, xoh ta’lim sohasi bo’lsin, xoh sog’liqni saqlash sohasi, hech qachon yuksalish, rivojlanish bo’lmaydi.

Korrupsiya -halokatga yo’l, taraqqiyot va jamiyat kushandasi. Har birimiz o’zimizning fuqarolik burch va majburiyatlarimizga mas’uliyat bilan yondashib, jamiyat hayotiga, davlatimiz kelajagiga befarq bo’lmasdan, korrupsiyani yo’q qilish uchun, korrupsion holatlarga chek qo’yish va u olib keladigan noxush vaziyatlarni bartaraf etish uchun korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashishimiz kerak. Buning uchun esa albatta yetarlicha bilimga ega bo’lishimiz ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu har birimizning ham insoniy, ham fuqarolik burchimiz. Biz korrupsiyaga qarshimiz! Biz korrupsiyani birgalikda yengamiz! Unga qarshi jon-jahdimiz bilan kurashamiz. Zero,

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz!"

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. O`zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to`g`risida" qonuni;
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yilgi davlat Konstitutsiyasiga bag`ishlangan tadbirdagi nutqi.
3. BMT ning Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma`lumotnomasi.